

## 2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan va ketgan shaxslar



Mamlakatimiz o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlari, me'moriy obidalarini bilan jahonda alohida mavqega ega. O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar mavjud. Ushbu soha yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, valyuta va soliq tushumlari ko'payishida muhim ahamiyatga ega.

2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni 1214,0 ming kishini tashkil etgan\*. Bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 12,0 % ga kamaygan.



- 16,7 %




2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 1435,3 ming kishini tashkil etdi\*. O'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda esa bu ko'rsatkich 16,7 % ga kamaygan.

\* Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida holat sifatida hisobga olinadi.



2019-2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda  
O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari  
va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ming kishi



Chet elga ketgan  
O'zbekiston fuqarolari



Kelgan chet el fuqarolari



2019-2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga  
turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi

Kelgan chet el fuqarolari, ming kishi




2020-yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 1160,4 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 95,6 % ini tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlardan esa 53,6 ming kishi (yoki 4,4 %) kelgan.



### 2019-2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi

#### Chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolari, ming kishi



2020-yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 1331,0 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 92,7 % ini tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlarga esa 104,3 ming kishi (yoki 7,3 %) tashrif buyurgan.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlilidan ko'rinadiki, 2020-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 166,2 ming nafar kam chet el fuqarolari tashrif buyurgan. Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2019-yil yanvar-mart oylarida jami 1723,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilning mos davrida esa 1435,3 ming nafarni tashkil etdi.



### 2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 51,9 % ini (629,6 ming kishi) erkaklar, 48,1 % ini (584,4 ming kishi) ayollar tashkil etgan.



### 2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da

Turistik maqsadlarda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 54,9 % ini (787,4 ming kishi) erkaklar, 45,1 % ini (647,9 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 397,6 ming kishi (barcha tashrif buyurganlarning 32,8 % i), Tojikistondan 332,7 ming kishi (27,4 %), Qirg'iz Respublikasidan 298,1 ming kishi (24,6 %), Rossiyadan 64,7 ming kishi (5,3 %), Turkmanistondan 60,6 ming kishi (5,0 %), Ozarbayjondan 2,0 ming kishi (0,2 %) va Belarusdan 1,2 ming kishi (0,1 %) tashrif buyurgan.





2020-yil yanvar-mart oylarida yaqin xorij davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi



2020-yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, % da



Turkiya - 1,1 %



Hindiston - 0,3 %



Janubiy Koreya - 0,4 %



Yaponiya - 0,1 %



Xitoy - 0,3 %



Fransiya - 0,1 %



**2020-yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, ming kishi**



Uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan 13,5 ming kishi (1,1 %), Janubiy Koreyadan 5,2 ming kishi (0,4 %), Xitoydan 3,7 ming kishi (0,3 %), Hindistondan 3,6 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 1,3 ming kishi (0,1 %) va Fransiyadan 0,9 ming kishi (0,1 %) tashrif buyurgan.



**2020-yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi**



Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi, ya'ni 35,8 % i Qirg'iz Respublikasiga (513,3 ming kishi), 34,2 % i Qozog'istonga (491,2 ming kishi), 18,5 % i Tojikistonga (265,2 ming kishi), 3,0 % i Rossiyaga (43,3 ming kishi), 1,1 % i Turkmanistonga (15,5 ming kishi), 0,1 % i Ozarbayjonga (1,4 ming kishi) va 0,1 % i Belarus Respublikasiga (1,2 ming kishi) borishgan.



### 2020-yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlarga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi




Xorijga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismini Turkiyaga 30,8 ming kishi, Saudiya Arabistoniga 27,8 ming kishi, BAAga 14,3 ming kishi, Janubiy Koreyaga 9,4 ming kishi, Hindistonga 5,0 ming kishi, Tailandga 4,7 ming kishi, AQShga 2,0 ming kishi va Misrga ketganlar 1,6 ming kishini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari bu – o'z qarindoshlarini yo'qlash bo'lib, bular 87,9 % ni tashkil etadi. O'z navbatida sayyohlik maqsadida - 9,3 %, davolanish maqsadida - 1,2 %, xizmat yuzasidan - 0,7 %, tijorat uchun - 0,6 %, o'qish uchun - 0,3 % chet el fuqarolari tashrif buyurgan.



2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi va safar maqsadlari, % da



2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 3,9 ming nafari (ulardan 46,2 % i erkaklar, 53,8 % i ayollar) o'qish maqsadida, 7,1 ming nafari (80,3 % erkaklar, 19,7 % ayollar) tijorat maqsadida, 8,7 ming nafari (85,1 % erkaklar, 14,9 % ayollar) xizmat yuzasidan, 14,1 ming nafari (46,1 % erkaklar, 53,9 % ayollar) davolanish maqsadida, 113,5 ming nafari (52,2 % erkaklar, 47,8 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 1066,7 ming nafari (51,5 % erkaklar, 48,5 % ayollar) o'z qarindoshlarini yo'qlash maqsadida kelgan.


2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 53,1 % i 31–55 yoshlilar, 19,5 % i - 19–30 yoshlilar, 19,4 % i - 56 yosh va undan kattalar, 8,0 % ini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.



Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 51,1 % i 31–55 yoshlilar, 21,6 % i 19–30 yoshlilar, 16,6 % i 56 yosh va undan kattalar, 10,7 % ini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. O'z qarindoshlarini yo'qlash maqsadida tashrif buyurganlarning 52,6 % i 31–55 yoshlilar, 18,9 % i 19–30 yoshlilar, 20,1 % i 56 yosh va undan kattalar, 8,4 % ini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.




**2020-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, % da**






2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



2020-yil yanvar-mart oylarida kelgan 18 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolarining 50,4 ming nafari erkaklar va 47,0 ming nafari ayollar, 19-30 yoshlilarning 151,9 ming nafari erkaklar va 84,4 ming nafari ayollar, 31-55 yoshlilarning 333,3 ming nafari erkaklar va 311,1 ming nafari ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 94,0 ming nafari erkaklar va 141,9 ming nafari ayollardan iborat.



**2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, % da**



2020-yil yanvar-mart oylarida kelgan 18 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolarining 51,7 % i erkaklar va 48,3 % i ayollar, 19-30 yoshlilarning 64,3 % i erkaklar va 35,7 % i ayollar, 31-55 yoshlilarning 51,7 % i erkaklar va 48,3 % i ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 39,8 % i erkaklar va 60,2 % i ayollardan iborat.



**2020-yil yanvar-mart oylarida turistik maqsadlarda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 86,8 % i o'z qarindoshlarini yo'qlash maqsadida, 8,1 % i sayyohlik maqsadida, 3,5 % i o'qish maqsadida, 1,2 % i xizmat yuzasidan va 0,4 % i davolanish maqsadida ketgan.




**2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, % da**



2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 48,1 % i 31-55 yoshlilar, 31,3 % i 19-30 yoshlilar, 15,4 % i 56 yosh va undan kattalar va 5,2 % ini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.



**2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da**



● ayollar

● erkaklar



2020-yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning 5,2 ming nafari (ulardan 46,2 % i erkaklar, 53,8 % i ayollar) davolanish maqsadida, 18,0 ming nafari (92,2 % erkaklar, 7,8 % ayollar) xizmat yuzasidan, 49,8 ming nafari (58,4 % erkaklar, 41,6 % ayollar) o'qish maqsadida, 116,1 ming nafari (53,2 % erkaklar, 46,8 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 1246,2 ming nafari (54,4 % erkaklar, 45,6 % ayollar) qarindoshlarini yo'qlash maqsadida ketgan.

Sayyohlik maqsadida xorijda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 5,2 % i 18 yoshgacha, 19,3 % i 19-30 yoshlilar, 51,8 % i 31-55 yoshlilar, 23,7 % ini 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Xizmat maqsadlarida tashrif buyurganlarning 0,3 % i 18 yoshgacha, 16,5 % i 19-30 yoshlilar, 71,4 % i 31-55 yoshlilar, 11,8 % ini 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.